

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalilik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari

Ozodaxon O'ktamova¹

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buyuk Britaniya va AQSh kontekstida ingliz tilidagi raqamli muloqotda qo'llaniladigan xushmuomalilik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot Brown va Levinsonning "Face Theory" (1987), Lakoffning xushmuomalilik qoidalari (1973), Leechning pragmatik maksimlari (1983) hamda Gilesning kommunikativ moslashuv nazariyasi (1973)ga tayangan holda olib borildi. Maqolada uch xil kommunikativ platforma, ya'ni elektron pochta, ishchi messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar misolida Buyuk Britaniya va AQShdagi nutqiy amaliyotlar solishtirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Buyuk Britaniyada salbiy xushmuomalilik strategiyalari (ehtiyotkorlik, hedging, bilvosita ifoda) ustuvor bo'lsa, AQShda ijobiy strategiyalar (samimiylik, tezkor aloqa, ochiq ifoda) yetakchilik qiladi. Ushbu farqlar xalqaro raqamli kommunikatsiyada madaniy va pragmatik tafovutlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Maqola raqamli savodxonlik va ingliz tili pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida ushbu farqlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *xushmuomalilik strategiyalari; raqamli muloqot; ingliz tili; pragmatika; elektron pochta; messenjerlar; ijtimoiy tarmoqlar.*

So'nggi o'n yilliklarda ingliz tili nafaqat global muloqot, balki raqamli muloqotning asosiy vositasi sifatida ham shakllanib bormoqda. Akademik yozishmalar, ishchi platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va xususiy chatlar orqali amalga oshadigan onlayn muloqot jarayonlari tilning formal, pragmatik va ijtimoiy funksiyalarini keskin o'zgartirdi. Bu jarayon, ayniqsa, ingliz tilida olib borilayotgan xalqaro muloqotda aniq ko'zga tashlanadi, chunki noverbal belgilar (intonatsiya, tana tili, mimika)ning yo'qligi

¹ O'ktamova Ozodaxon Ilhomjon qizi – O'zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktorant 1-kurs talabasi

E-pochta: ozodaxonoktamova@gmail.com

ORCID raqam: 0009-0005-8120-3612

Iqtibos uchun: O'ktamova. Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalilik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 183-192.

natijasida xushmuomalilikni ifodalash to'liq lingvistik shakllar zimmasiga yuklanmoqda (Herring, 2013: 26).

Raqamli muloqotda xushmuomalilik strategiyalarini tushunish va tahlil qilishda aynan Angliya va AQSh konteksti alohida ahamiyatga ega. Chunki zamonaviy global ingliz tili amaliyotida ko'plab muloqot standartlari, ayniqsa professional va akademik yozishma janrlari, shu ikki madaniyatning pragmatik konventsiyalariga tayanadi (House, 2005: 213; Davies, 2011: 77). Masalan, elektron pochta janrida ishlatiladigan *"Dear..."*, *"I was wondering if..."*, *"I would greatly appreciate..."* kabi formulalar yoki ishchi messenjerlardagi *"just checking in"*, *"quick question"* kabi iboralar aslida ingliz tilidagi xushmuomalilik strategiyalarining madaniy jihatdan shakllangan namunalaridir.

Raqamli muloqotning o'ziga xosligi shundaki, u formallik va norasmiyning chegarasini kengaytiradi. Elektron pochta kabi rasmiy kanallarda xushmuomalilik ko'proq an'anaviy yozishma qoidalariga asoslanadi, Slack yoki WhatsApp singari messenjerlarda esa nutq yumshatilgan, lekin baribir professional kontekstni saqlagan shaklda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda esa xushmuomalilik ko'proq *ijobiy* (do'stona) yoki hatto *impoliteness* (sarkazm, tanqid) shaklida ko'zga tashlanadi (Haugh, 2010: 159).

Xushmuomalilik strategiyalarini tushuntirishda biz Brown va Levinsonning *"Face Theory"* (1987), Lakoffning xushmuomalilik qoidalari (1973), Leechning pragmatik maksimlari (1983), hamda Gilesning kommunikativ moslashuv nazariyasi (1973)ga tayanamiz. Ushbu nazariyalar AQSh va Buyuk Britaniyada shakllangan raqamli muloqot amaliyotlarini tahlil qilish uchun keng imkoniyat beradi. Shuningdek, bu ikki madaniyat o'rtasidagi xushmuomalilikdagi farqlar ham e'tiborga olinadi. AQShda ijobiy xushmuomalilik, tezlik va samaradorlik ustuvor bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri, lekin muloyim ifodalar keng qo'llanadi: *"Hi! Quick question..."*. Buyuk Britaniyada esa salbiy xushmuomalilik, ehtiyotkorlik va kinoyali ifodalar ko'proq uchraydi: *"I was just wondering if perhaps you might have a minute..."*.

Ushbu farqlar raqamli kommunikatsiyada nafaqat lingvistik, balki pragmatik va madaniy tafovutlarni ham chuqur yoritib beradi. Xalqaro raqamli muloqot jarayonlarida aynan shu farqlar ko'pincha noto'g'ri talqinlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun AQSh va Buyuk Britaniya misolida raqamli muloqotdagi xushmuomalilik strategiyalarini tahlil qilish nafaqat ingliz tilining o'zini, balki global kommunikatsiya jarayonlarining madaniy asoslarini ham chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Raqamli muloqotdagi xushmuomalilikni tushuntirish va tahlil qilishda zamonaviy pragmatika va sotsiolingvistika tadqiqotlarida asosiy o‘rin tutgan to‘rtta yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi: Brown va Levinsonning “Face Theory” (1987), Lakoffning xushmuomalilik qoidalari (1973), Leechning pragmatik maksimlari (1983) va Gilesning kommunikativ moslashuv nazariyasi (1973). Bu nazariyalar ingliz tilida olib boriladigan raqamli muloqotning, ayniqsa Buyuk Britaniya va AQShdagi nutqiy amaliyotlarning lingvistik va pragmatik asoslarini tushuntirishda keng qo‘llaniladi.

Brown va Levinson xushmuomalilikni “yuz” (face) tushunchasi orqali izohlaydi. Ularning nazariyasiga ko‘ra, har bir inson muloqotda o‘zining ijtimoiy obro‘isini, ya‘ni ijobiy va salbiy yuzini saqlashga intiladi.

Ijobiy yuz – shaxsning boshqalar tomonidan qabul qilinish, hurmat va yaqinlik istagini bildiradi.

Salbiy yuz – shaxsning erkinligi, mustaqilligini saqlash istagini anglatadi (Brown & Levinson, 1987: 61–72).

Xushmuomalilik strategiyalari, demak, ushbu ikki ehtiyojni himoya qilishga qaratilgan: **ijobiy xushmuomalilik** yaqinlik va samimiylikni kuchaytirsa, **salbiy xushmuomalilik** suhbatdoshga yuklamaslik va masofani saqlashga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniya va AQShdagi raqamli muloqot amaliyotlarida bu ikki strategiya turlicha nisbatda qo‘llaniladi. Masalan, AQShda ijobiy xushmuomalilik ko‘proq ustunlik qiladi – “Hi!”, “Quick question” kabi iboralar orqali yaqinlik, tezkor aloqa va samimiylilik ifodalanadi. Buyuk Britaniyada esa salbiy xushmuomalilik, ya‘ni ehtiyotkorlik va “don’t impose” tamoyili ko‘proq kuzatiladi. Masalan, “I was just wondering if you might have a moment...” kabi yumshatilgan ifodalar salbiy yuzga hurmatni bildiradi. Bu farq elektron yozishmalarda, xususan akademik va ishchi email janrlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Robin Lakoff xushmuomalilikni uchta asosiy nutqiy qoida orqali tavsiflaydi:

- **Bosim qilma** (*Don’t impose*)
- **Tanlov imkonini ber** (*Give options*)
- **Do‘stona bo‘l** (*Be friendly*) (Lakoff, 1973: 292–296).

Bu qoidalar ayniqsa raqamli muloqotning rasmiy shakllarida – elektron pochta va ishchi platformalarda – o‘z ifodasini topadi. Buyuk Britaniya email yozishmalarida “bosim qilmaslik” qoidasiga alohida e‘tibor beriladi. Masalan, “I was wondering if you could possibly...” kabi kirish iboralari iltimosni yumshatish orqali

adresatning salbiy yuziga bosim qilmaslikni ta'minlaydi.

AQShda esa “tanlov imkonini berish” va “do'stona bo'lish” qoidalari ko'proq ustuvorlik qiladi. “Hi John, just checking in if you have a minute” kabi ifodalar murojaatni samimiy va tezkor qilishga qaratilgan bo'lib, bu ijobiy xushmuomalilikni kuchaytiradi. Lakoff qoidalari raqamli muloqotda aynan Buyuk Britaniya va AQSh o'rtasidagi ohang, formalizm va pragmatik ustuvorliklarni farqlashda juda qulay nazariy ramka beradi.

Geoffrey Leech xushmuomalilikni nutqiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi olti asosiy prinsip – *tact*, *generosity*, *approbation*, *modesty*, *agreement* va *sympathy* maksimlari orqali tahlil qiladi (Leech, 1983: 132–150). Buyuk Britaniya raqamli muloqotida, ayniqsa elektron pochta janrida, *tact* va *modesty* maksimlariga katta e'tibor beriladi. “I realise you must be very busy, but...” yoki “If it's not too much trouble...” kabi shakllar adresatning vaqtini hurmat qilish va murojaatni yumshatish uchun qo'llaniladi. Bu salbiy xushmuomalilikning kuchli namunasidir.

AQShda esa *approbation* (suhbatdoshni ijobiy baholash) va *agreement* maksimlari ko'proq ishlaydi. Masalan, Slack yoki Microsoft Teams yozishmalarida “Great point!”, “Exactly!”, “That's a good idea” kabi iboralar ijobiy yuzni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, muloqot tezligi va ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bizningcha, Leech maksimlari Buyuk Britaniya va AQShdagi xushmuomalilik uslublarining chuqur pragmatik farqlarini ko'rsatishda juda foydali nazariy asosdir.

Howard Giles tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ moslashuv nazariyasi (Communication Accommodation Theory) shaxslar muloqot jarayonida bir-birlariga yaqinlashish (*convergence*) yoki uzoqlashish (*divergence*) yo'li bilan nutqiy uslubni moslashtirishlarini ta'kidlaydi (Giles, 1973: 112–118). Buyuk Britaniya va AQShdagi raqamli muloqotda konvergensiya ko'pincha **murojaat shakllari va uslubni moslashtirish** orqali amalga oshadi. Masalan, Britaniya muloqotida adresatning ohangiga moslashish (ehtiyotkorlik, kinoya) muhim bo'lsa, AQShda tezlik va soddalik asosida samimiy uslubga yaqinlashish kuzatiladi. Divergensiya esa ko'proq madaniy farqlardan kelib chiqadi: masalan, britaniyalikning ortiqcha “hedging” ishlatishi amerikaliklar tomonidan keraksiz cho'zilish sifatida talqin qilinishi mumkin; aksincha, amerikalikning to'g'ridan-to'g'ri savoli britaniyalik uchun haddan tashqari keskin tuyuladi.

Yuqoridagi to'rtta nazariya AQSh va Buyuk Britaniya raqamli

muloqotidagi xushmuomalilik strategiyalarini tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratadi. Bizningcha, Brown va Levinson modeli rasmiy yozishmalarda salbiy va ijobiy xushmuomalilik nisbatlarini tushunishga yordam beradi; Lakoff qoidalari – ohang va yumshatish strategiyalarini, Leech maksimlari – nozik pragmatik farqlarni, Giles nazariyasi esa – raqamli muhitda moslashuv va tafovutlarni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu nazariy asoslar keyingi bo'limlarda email, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda olib boriladigan amaliy tahlil uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Elektron pochta Buyuk Britaniya va AQShda akademik, professional va rasmiy yozishmalarning asosiy kanali sifatida shakllangan. Shu bois bu janrda **salbiy xushmuomalilik strategiyalari** (negative politeness) ustunlik qiladi (Brown & Levinson, 1987: 65). Britaniya email madaniyati yuqori darajadagi ehtiyotkorlik va *“bosim qilmaslik”* tamoyiliga asoslanadi. Kirish qismi ko'pincha yumshatilgan shaklda bo'ladi:

“I was just wondering if perhaps you might have a moment to look at this...”

Bu yerda *“just”, “perhaps”, “might”* kabi hedging elementlari murojaatni yumshatadi va adresatning vaqtiga hurmat bildiriladi (House, 2005: 221). Leechning *tact* va *modesty* maksimlari ham faol qo'llaniladi (Leech, 1983: 136). Shuningdek, yakunlovchi formulalar ko'pincha ehtiyotkorlikni davom ettiradi:

“Best regards,”

“Kind regards,”

“With many thanks in advance.”

Britaniyada salbiy xushmuomalilikning kuchli bo'lishi ijtimoiy masofa va shaxsiy hududni saqlashga qaratilgan madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq.

AQShda esa elektron pochta odatda **ko'proq ijobiy xushmuomalilik** strategiyalariga tayanadi. Kirish qismlari samimiy, ko'pincha bevosita, lekin muloyim ohangda bo'ladi:

“Hi John, I hope this email finds you well. I was wondering if you could help me with...”

Amerikalik yozishmalarda murojaat tezroq masalaga o'tadi, lekin ijobiy yuzni qo'llab-quvvatlovchi ifodalar ko'p ishlatiladi (Tannen, 1990: 55). Yakunlovchi formulalar ham nisbatan samimiyroq:

“Best,”

“Thanks so much,”

“All the best,”

Bu farq AQSh kommunikativ madaniyatining ochiq va tezkor, Britaniyaning esa ehtiyotkor va ierarxiyani hisobga oluvchi xarakterini aks ettiradi. Elektron pochta janrida bu farqlar ko'pincha xalqaro jamoalarda noto'g'ri talqinlarga olib keladi. Masalan, britaniyalik uchun amerikalikning "quick question" iborasi haddan tashqari bevosita, amerikalik uchun esa britaniyalikning "*I was just wondering...*" shakli keraksiz cho'zilish sifatida ko'rilishi mumkin.

Raqamli muloqotning kengayib borayotgan global makonida ingliz tili, ayniqsa Buyuk Britaniya va AQSh kontekstlarida shakllangan xushmuomalilik strategiyalari xalqaro kommunikatsiyaning pragmatik modeli sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, raqamli muloqotning turli platformalarida (elektron pochta, ishchi messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar) xushmuomalilik strategiyalari madaniy qadriyatlar, nutqiy janr xususiyatlariva platformaning texnik imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllanadi.

Buyuk Britaniyada xushmuomalilik ko'proq salbiy strategiyalarga tayanadi, ehtiyotkorlik, bilvosita ifoda, "bosim qilmaslik" va ierarxiyani hisobga olish muloqotning asosiy pragmatik tamoyillari hisoblanadi. Bu holat ayniqsa rasmiy elektron yozishmalarda va messenjerlardagi hedging elementlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. AQShda esa ijobiy strategiyalar, ya'ni samimiylik, tezlik, ochiq tanqid yoki qo'llab-quvvatlovchi ifodalar ustuvorlik qiladi. Brown va Levinsonning yuz nazariyasi (1987), Lakoffning xushmuomalilik qoidalari (1973), Leechning pragmatik maksimlari (1983) hamda Gilesning kommunikativ moslashuv nazariyasi (1973) Buyuk Britaniya va AQSh muloqotidagi ushbu farqlarni izohlash uchun samarali ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Elektron pochta janrida salbiy va ijobiy xushmuomalilik strategiyalari nisbati eng aniq ko'rinadi, messenjerlarda bu strategiyalar qisqa va tezkor shakllarga moslashadi, ijtimoiy tarmoqlarda esa ularning chegaralari ko'pincha buziladi yoki ironik shakllarda namoyon bo'ladi.

Bu ikki madaniy model global ingliz tilida olib borilayotgan raqamli muloqotning ikki asosiy pragmatik qutbini tashkil etadi. Xalqaro akademik, ishchi va ijtimoiy aloqalarda ushbu farqlarni tushunish kommunikativ noaniqlik va noto'g'ri talqinlarning oldini olish uchun zarur. Shu sababli, raqamli savodxonlik va til ta'limi jarayonlarida xushmuomalilikning madaniy-pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor berish, ayniqsa ingliz tili orqali olib boriladigan transmilliy muloqotlarda, dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

- Biesenbach-Lucas S. 2007. Talabalarning o'qituvchilarga yozgan elektron xatlari: Ingliz tilining ona tilida so'zlashuvchi va notiflar orasida elektron xatdagi xushmuomalilikni o'rganish. Til o'rganish va texnologiya (Language Learning & Technology), 11(2), 59–81.
- Mamajonov Z. 2010. Pragmatika va nutq madaniyati. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
- Brown P. & Levinson, S. 1987. Xushmuomalilik: Til qo'llanishidagi ayrim universal xususiyatlar. Kembrij: Cambridge University Press.
- Byron K. 2008. Haddan ortiq yukmi? Elektron pochta orqali his-tuyg'ularni yetkazish va noto'g'ri tushunish. Boshqaruv akademiyasi sharhi (Academy of Management Review), 33(2), 309–327.
- Jo'rayev Y. 2015. Tilshunoslikda kommunikativ yondashuv. Toshkent: Fan.
- Culpeper J. 2011. Qo'pollik: Til yordamida xafa qilish. Kembrij: Cambridge University Press.
- Giles H. 1973. Aksent mobilligi: model va ba'zi ma'lumotlar. Antropologik tilshunoslik (Anthropological Linguistics), 15(2), 87–105.
- Davies B. 2011. Akademik va ishchi muhitda elektron yozishmalar diskursi: Pragmatik tahlil. London: Continuum.
- Rasulov R. 2012. Til va jamiyat: kommunikativ jarayonlar tahlili. Toshkent: Universitet.
- Herring S. C., 2013. Web 2.0 nutqi: tanish, qayta shakllangan va yangi ko'rinishlar. In Tannen, D. & Trester, A. (tahr.), Discourse 2.0: Til va yangi media (betlar 1–25). Jorjtaun universiteti nashriyoti.
- Leech G. 1983. Pragmatika prinsiplari. London: Longman.
- Culpeper J. & Hardaker, C., 2017. Raqamli muloqotda qo'pollik va tajovuzkorlik. Pragmatika jurnali (Journal of Pragmatics), 118, 579–595.
- Mirtojiyev M. 2010. Tilning pragmatik imkoniyatlari va ularning ifodalanishi. Toshkent: Fan.
- Lakoff R. 1973. Xushmuomalilik mantiqi yoki nutqda "p" va "q"larga e'tibor berish. Chikago lingvistika jamiyati to'qqizinchi mintaqaviy yig'ilishi materiallari, 9, 292–305.
- Feghali E. 1997. Arab madaniy kommunikatsiyasi naqshlari. Xalqaro madaniyatlararo munosabatlar jurnali (International Journal of Intercultural Relations), 21(3), 345–378.
- House J. 2005. Ingliz tili xalqaro aloqa tili sifatida: tabiiy korpusdan ayrim xulosalar. In Hickey, T. & Williams, J. (tahr.), Til ta'limi va qo'llanma tilshunoslik (betlar 221–242). Multilingual Matters.
- Rafiqov A. 2018. Elektron muloqotda nutq madaniyati va xushmuomalilik strategiyalari. O'zbekiston filologiya jurnali, 4, 55–62.
- Matsumoto Y. 1988. "Yuz"ning universalligi qayta ko'rib chiqildi: Yapon xushmuomalilik hodisalari. Pragmatika jurnali (Journal of Pragmatics), 12(4), 403–426.
- Pitts V. & Schultz P. 2009. Kompyuter vositasida muloqotda xushmuomalilik va qo'pollik. Amsterdam: John Benjamins.

- Tannen D. 1990. *Siz shunchaki tushunmaysiz: Ayollar va erkaklar muloqotida farqlar*. Nyu-York: Ballantine Books.
- House J. & Kasper, G. 1981. Ingliz va nemis tillarida xushmuomalilik belgilarining qo'llanilishi. In Coulmas, F. (tahr.), *Suhbat odatlari (betlar 157–185)*. Mouton.
- Byron K. 2009. Tashkilotlarda elektron pochta orqali aloqa: Adabiyotlar sharhi. *Boshqaruv kommunikatsiyasi choraklik jurnali (Management Communication Quarterly)*, 23(1), 33–63.
- House J. 1996. Ingliz tilini o'zga til sifatida o'rganishda pragmatik ravonlikni shakllantirish. Ikkinchi tilni o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlar (*Studies in Second Language Acquisition*), 18(2), 225–252.

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication

Ozodakhon Uktamova¹

Abstract

This article examines the politeness strategies and their linguistic features used in English digital communication within the contexts of the United Kingdom and the United States. The analysis draws on Brown and Levinson's Face Theory (1987), Lakoff's politeness rules (1973), Leech's pragmatic maxims (1983), and Giles's Communication Accommodation Theory (1973). The study focuses on three main communicative platforms – email, workplace messengers, and social media – and compares the pragmatic patterns observed in British and American contexts. The findings indicate that negative politeness strategies (hedging, indirectness, cautious tone) dominate in British communication, whereas positive politeness strategies (friendliness, directness, rapid interaction) prevail in American digital discourse. These differences often lead to cultural and pragmatic misunderstandings in international communication. The article highlights the importance of integrating such pragmatic distinctions into digital literacy and English language education.

Keywords: *politeness strategies; digital communication; English language; pragmatics; email; messengers; social media.*

¹ *Ozodakhon Uktamova Ilhomjon kizi* –Doctoral Student, National University of Uzbekistan.

E-mail: ozodaxonoktamova@gmail.com

ORCID: 0009-0005-8120-3612

For citation: O. Uktamova. Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication. *Uzbekistan: Language and Culture. Linguistics*. 2025-3: 183-192.

References

- Biesenbach-Lucas, S. 2007. Students writing emails to faculty: An examination of e-politeness among native and non-native speakers of English. *Language Learning & Technology*, 11(2), 59–81.
- Mamajonov Z. 2010. *Pragmatics and Speech Culture*. Tashkent: National University of Uzbekistan Press.
